

ER-XOTIN MUNOSABATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI (ZAMONAVIY OILA MISOLIDA)

Babajanov G'ulomjon Muxtorovich

Ilmiy rahbar

Ramazanov Jahongir Jalolovich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi zamonaviy oilalarda gender tenglikni namoyon bo'lishida ta'limiy jarayonlarning o'rni ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos ta'siri asoslangan. Jamiyatning rivojlanishida erkaklar va ayollarning rolini birdek oshirish lozimligi ta'kidlangan. Bir qator adabiyotlar tahlili yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy o'zbek oilasi, ta'limiy jarayon, gender tenglik, milliy-etnik qadriyatlar, jamiyatning rivojlanishida erkaklar va ayollarning roli.*

Аннотация: *В статье обосновано специфическое влияние социальных процессов на роль образовательных процессов в проявлении гендерного равенства в современных семьях. Подчеркивалась необходимость равномерного повышения роли мужчин и женщин в развитии общества. Освещается анализ ряда литератур.*

Ключевые слова и понятия: *современная узбекская семья, образовательный процесс, гендерное равенство, национально-этнические ценности, роль мужчин и женщин в развитии общества.*

Abstract: *The article substantiates the specific influence of social processes on the role of educational processes in the manifestation of gender equality in modern families. The necessity of evenly increasing the role of men and women in the development of society was emphasized. The analysis of a number of literature is highlighted.*

Key words and concepts: *modern uzbek family, educational process, gender equality, national and ethnic values, the role of men and women in the development of society.*

O'zbekistonda bugungi kun zamonaviy ta'limining gender tengligiga erishishda o'ziga xos roli mavjud bo'lib ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish bilan bog'liq bir qator dasturlar, qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilinib, gender tengligi bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasi ham mavjudligi ta'kidlangan.

Oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezig'ustaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa yosh oilalarda ota-onalik ma'suliyatini o'z zimmasiga olib o'zaro munosabatlar tizimini to'g'ri shakllantirish jarayonlarida kuzatiladi.

Ma'lumki, 1948-yilda BMT Bosh assamb-leyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsi-yaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat - Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanishicha, «Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktga ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi».

Shu o'rinda asrlar davomida sayqal topib kelayotgan milliy qadriyatlarni to'g'ri anglab yetmaslik, ijtimoiy, umuminsoniy qoidalarni erkaklar tomonidan shaxsiy tarkibda buzib talqin qilinishi, tushunilishi, er-xotin xissiy-intim muno-sabatlarida ayollar rolini to'laqonli bajarilmasligi, stereotiplar ta'sirida ayollarning tabiatiga nomu-vofiq xatti-harakatlari gender tengsizlikka, kam-sitilishga sabab bo'lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ijti-moiy-psixologik muammolarini aniqlash, zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishimizning dolzarbligini yanada oshiradi va uni empirik o'rganish lozimligini taqozo etadi.

Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mus-taqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonun-chiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ammo, milliy qonunchiligimizda yoritilgan ayollar va erkaklar tengligini qonuniy kafolatlari ishlab chiqilgan-ligiga qaramasdan oilaviy nizolarning aksariyat sabablari erkaklar tomonidan ayol huquqlarini ayrim holatlarda poymol qilinishi, ko'p holat-larda ayollar huquqlarini tan olinmasligi sababli ziddiyatlarni kelib chiqayotganligi, fikrimizcha muammoning etnopsixologik jihatlarini xam o'rganish zarurligini ko'rsatadi va o'zbek oil-alarida erkaklar tomonidan xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga nima uchun va qanday sababga ko'ra yetarlicha ahamiyat berilmayotganligini milliy yoki psixologik jihatlari mavjudmikan, degan savolni vujudga keltiradi. Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikni namoyon bo'lishida milliy-etnik qadriyatlarning o'ziga xos ta'siri mavjud. Bu kabi o'ziga xoslik er-xotinlarning o'zaro munosabatlari va muloqot jarayoniga, gender tenglikni namoyon bo'lishiga xam ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa oilaning katta vakillari oldida yosh er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan his etilayotgan tuyg'ulari, mehrning ko'rinishlari, shakllarini namoyon etilmasligi, bu borada "uyat", "ayblov" kabi bir qator stereotiplarning mavjudligi xam er-xotinlarning shaxslararo munosabatlarida psixologik uyg'unlikni buzilishiga olib keladi.

Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi

yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
- o'rta oilaviy hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
- katta oilaviy hayot muddati - 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

- oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;
- vaqtning yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;
- yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar.

Yosh oilalarda munosabat tizimi asosiy rol o'ynaydi bunda ikki yoshning bir -birini tushunishi evaziga oiladagi tashqi ta'sirlarning yuzaga kelishining oldini olinadi. Psixologik nuqtai nazardan biologik, psixologik hamda ijtimoiy qovushish turlarining o'zaro almashib turishi yosh oilalardagi o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jumladan ular organizmidagi neuroassotsiativ bog'lanishlardagi nomoslik; immun tizimdagi uyg'unlikni rivojlanmaganligi; odatlaridagi nomutanosiblik; o'z o'rnida "psixosotsial", "aqliy-intellektual", "biokimyoviy", "intim-jin-siy hayot" va organizmning "biologik hayot kechirish" qonuniyatlarini buzilishiga olib kelishi kuzatilgan. Er-xotinning yagona va hamjihat organizm sifatida uyg'unlashib borishi esa oilaning har jihatdan barqarorligini ta'minlaydi.

Passivlik, qaramlik, emotsionallik, intuitiv-lik, irratsionallik, empatiya kabi xususiyatlar an'anaviy ravishda ayollik fazilatlarini deb baholangan.

Ayolning umumiy gender roli «ona», «xotin», «uy bekasi», «oila o'chog'i, qo'riqchisi» rollarining mazmunini ifodalab bundan keyingina «ishchi», «professional shaxs, mutaxassis bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.

Erkaklarning an'anaviy gender roliga xos bo'lgan xususiyatlar «ta'minlovchi», «himoyachi», «professional shaxs», «oila boshlig'i» deb baholanib, shundan keyingina «er», «ota» rollarini o'z ichiga olishi ta'kidlangan.

An'anaviy qarashlarda hukmronlik, ijti-moiy faollik, tajovuzkorlik, ratsionalizm, mantiqiy fikrlash erkaklarga xos xususiyatlar deb bahol-anishi shakllangan stereotiplarni mavjudligini ko'rsatadi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan ibo-ratki, olimlarimiz tomonidan o'zbek oilasi misolida gender stereotiplarining erkak va ayollarning o'zaro munosabatlariga ta'siri, gender xulq-atvor, gender rollarni shakllan-ishiga ta'sir etuvchi milliy qadriyatlarining roli, yetarli o'rganilmagan.

O'zbek oilalarida er-xotin gender tengligiga erishishda hissiy-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik qadriyatlar va psixofiziologik omillarni rolini aniqlash, gender tenglikni ta'minlanishiga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Психология семья: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. - Т.:, 2007. - 316 с.
2. Bowen, Murray (1966), "Klinik amaliyotda oila nazariyasidan foydalanish", Klinik amaliyotda oilaviy terapiya (qayta nashr etilgan), Lanham, MD: Rowman and Littlefield (nashriyot 2004), 147-181 betlar,
3. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования ред. Е. Г. Силяева М.: Издательский центр «Академия», 2002.
4. Тойирова Л. И. ПСИХОДИАГНОТИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ДВОЙНЫХ ПАР БЛИЗНЕЦОВ //Теория и практика современной науки. - 2018. - №. 5. - С. 1113-1115.
5. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. - 2020. - С. 202-205.